Dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini baholash mezonlari va monitoring tizimi.....	651
<i>Umurov Zarif Latifboyevich</i>	
Boshlang'ich sinflarda folklor asarlarini aksiologik yondashuv asosida o'qitish metodikasi	660
<i>Aytmuratova Elvira Ersultanovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilari tanqidiy fikrlashining psixologik va pedagogik mohiyati.....	663
<i>Haydarova Kamola Ergashboy qizi</i>	
Differensial ta'limning nazariy-konseptual asoslari.....	667
<i>Rasulova Nozigul Abdivoxid qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatga o'rgatishda kreativ shaxsni shakllantirish bo'yicha metodik tavsiyalar	671
<i>Rizoyeva Muslima Raxmonovna</i>	
Информационная компетентность через призму филологии: ключевые факторы формирования ...	679
<i>Хикматов Нодир Назимджанович</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida qadriyatlar tizimini shakllantirishning samarali yo'llari	683
<i>Mamatova Zarena Abduljalilovna</i>	
O'zbekiston va Angliyada pedagogik ta'lim tizimining tarixiy asoslari.....	686
<i>Miramatova Laylo Ravshanjon qizi</i>	
Innovatsion ta'lim muhitida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	690
<i>Nilufar Xalikova Mirkadirovna</i>	
Badmintonchilarda maxsus chaqqonlik tayyorgarligining o'yin faoliyatiga ta'siri	694
<i>Samadova Uktabar Hasanovna</i>	
<i>Maktab direktorlarining boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishda sinergetik</i>	
yondashuvning o'rni va ahamiyati	698
<i>Yusupova Dilnoza Fayzullayevna</i>	
Pedagogical Essence of Improving Students' Collaborative Skills Through Multi-Vector Approaches	702
<i>Turemuratova Aziza Begibaevna, Otelbayeva Muhayyo Alisher qizi</i>	
Tasviriy san'at mashg'ulotlarining maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv, estetik va ijodiy rivojlanishiga ta'siri	708
<i>Shaymuradov Taxir Zamanovich</i>	
Oliy ta'limda ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyalarni baholash mezonlari: falsafa fanining o'quv jarayoniga integratsiyasi	713
<i>Abdullayev Akmal Nasriddinovich</i>	
Klasterli ta'lim muhitida bo'lajak o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodlari.....	717
<i>Abdurahmonov Maqsad Bekjonovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanishning yetakchi omillari.....	720
<i>Abduvosiyeva Mahmuda Xamidullo qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ sifatlarini oshirish: zamonaviy yechimlar va muammolar	724
<i>Abduxalimova Yulduz Normurod qizi</i>	
Maktablarda sun'iy intellekt asosida xorijiy tillarni o'qitish afzalliklari	728
<i>Altimisheva Iroda Mavlonovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	731
<i>Ashurov Yusuf Alisher o'g'li</i>	
Bolalikni qayta anglash: mariya montessori pedagogik qarashlarining ilmiy asoslari	735
<i>Ismatullayeva Madinabonu Akmaljon qizi</i>	
14-15 yoshli o'quvchilarning jismoniy tarbiya vositalari orqali jismoniy tayyorgarligi samaradorligini oshirish metodi	740
<i>Karimboyev Og'abek Qadamboyevich</i>	

O'zbekiston xalqlarining amaliy san'ati va ma'naviy merosini o'rganish: tarixiy va pedagogik jihatlar	744
Kayumov Erkin Kazakbayevich	
Fizika ta'limida kognitiv texnologiyalar asosida talabalarning mantiqiy va analitik tafakkurini rivojlantirish yo'llari	748
Madumarov Shodonbek Az'amjonovich	
Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonlarida pedagogik-psixologik bilimlarning ahamiyati	751
Muratova Shaxnoza Ibatovna	
Yoshlar o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlashda pedagogik resurslar va hamkorlik infratuzilmasining ahamiyati	754
Matnazarov O'ktam Latipovich	
Maxsus pedagogika o'qituvchilarining pedagogik va psixologik tayyorgarlik darajasi	757
Oxunov Ilxomjon Abdunabiyeich	
Funksional bog'liqlikni tushunishda vizual-eksperimental metodning samaradorligi	760
Qobilova Nargiza Anvarovna, Shamuratov Zafar Ergashevich	
The Psychological Importance of Emotional Intelligence and Stress Resilience in Increasing Professional Efficiency of Primary School Pedagogues	766
Tajiboyeva Odinakhon	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlar jarayoni sifatini monitoring qilish vositasi sifatida	769
Tashbayev Naim Sadikovich	
Axloqiy tafakkur va axloqiy qaror qabul qilish kompetensiyasi tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati	773
Temirova Oydina Muhiddinova	
Oliy ta'lim muassasalarida "Muhandislik kompyuter grafikasi" fanini o'qitishning metodik asoslari va zamonaviy yondashuvlari	776
Xamidov Dilshod Olimjon o'g'li	
Kasbiy ta'lim rahbarlarining individual yondashuv asosida kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari ...	780
Yangiboyev Kamol Norboyevich	
Тема экологических проблем как элемент духовно-нравственного воспитания студентов в произведениях Чингиза Айтматова	784
Абдулвохидов Элёр	
Девиантное поведение школьников в образовательной среде: проблемы классификации и гендерные особенности восприятия педагогами	789
Алимжанова Матлюба Юнусовна	
Анализ проблем развития профессиональной иноязычной компетенции по английскому языку у студентов медицинских вузов	793
Исраилова Илона Халитовна	
Психолого-педагогические условия использования изобразительной деятельности как средства стимуляции коммуникативных навыков у воспитанников с синдромом дауна	798
Каримова Регина Шовкатовна	
Методика развития специальной физической подготовленности футболистов 11–12 лет с использованием современного инновационного оборудования	802
Мирзабаев Диёрбек Камилович	
Нейроигра как эффективное средство развития познавательных и регуляторных функций у детей дошкольного возраста	805
Намазбаева Лола Закировна, Маткаримова Шарипа Рахимжановна	
Методы и приёмы технологии развития критического мышления в курсе "Общая педагогика": опыт проектирования учебного процесса в вузе	809
Янкина Рано Садыковна	

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KREATIV SIFATLARINI OSHIRISH: ZAMONAVIY YECHIMLAR VA MUAMMOLAR

Abduxalimova Yulduz Normurod qizi

Termiz davlat pedagogika instituti maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti boshlang'ich ta'limda matematika va ona tili kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ sifatlarini oshirishning dolzarb masalalari, zamonaviy yechimlari hamda mavjud muammolari tahlil qilingan. Tadqiqotda kreativlik tushunchasining pedagogik mohiyati, uning bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi o'rni hamda boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, oliy ta'lim jarayonida kreativ sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishda qo'llaniladigan interfaol metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, muammoli vaziyatlar, loyihaviy yondashuv hamda mustaqil ijodiy faoliyatning samaradorligi ko'rib chiqilgan. Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ sifatlarining yetarli darajada rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar, jumladan, an'anaviy yondashuvning ustuvorligi, amaliy mashg'ulotlarning yetishmasligi, motivatsion omillarning sustligi va metodik ta'minot muammolari tahlil qilingan. Tadqiqot asosida ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yechimlar va metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, boshlang'ich ta'lim, kreativlik, kreativ sifatlar, pedagogik kompetentlik, innovatsion yondashuv, interfaol metodlar, loyihaviy faoliyat, muammoli ta'lim, ijodiy fikrlash.

Abstract: This article analyzes topical issues, modern solutions, and existing problems related to improving the creative qualities of future primary school teachers. The study highlights the pedagogical essence of creativity, its role in developing the professional competence of future teachers, and its importance in improving the quality of primary education. It also examines the effectiveness of interactive methods, innovative pedagogical technologies, problem-based situations, project-based approaches, and independent creative activities used in the process of developing creative qualities in higher education. In addition, the article analyzes the factors hindering the effective development of creative qualities in future primary school teachers, including the dominance of traditional approaches, the lack of practical training, weak motivation, and problems related to methodological support. Based on the research findings, modern pedagogical solutions and methodological recommendations aimed at overcoming these problems have been developed.

Key words: future teacher, primary education, creativity, creative qualities, pedagogical competence, innovative approach, interactive methods, project-based activity, problem-based learning, creative thinking.

Аннотация: В данной статье анализируются актуальные вопросы, современные решения и существующие проблемы повышения креативных качеств у будущих учителей начальных классов. В исследовании раскрываются педагогическая сущность понятия креативности, её роль в развитии профессиональной компетентности будущих педагогов, а также значение в повышении качества начального образования. Наряду с этим рассматривается эффективность интерактивных методов, инновационных педагогических технологий, проблемных ситуаций, проектного подхода и самостоятельной творческой деятельности, применяемых в процессе формирования и развития креативных качеств в системе высшего образования. В статье также анализируются факторы, препятствующие полноценному развитию креативных качеств у будущих учителей начальных классов, в частности преобладание традиционного подхода, недостаточность практических занятий, слабая мотивация и проблемы методического обеспечения. На основе проведённого исследования разработаны современные педагогические решения и методические рекомендации, направленные на устранение данных проблем.

Ключевые слова: будущий учитель, начальное образование, креативность, креативные качества, педагогическая компетентность, инновационный подход, интерактивные методы, проектная деятельность, проблемное обучение, творческое мышление.



KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari jadallashib borayotgan davrda ta'lim tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalar qo'yilmoqda. Zamonaviy jamiyat nafaqat bilimli, balki mustaqil fikrlaydigan, yangilik yarata oladigan, nostandart vaziyatlarda samarali yechim topadigan, ijodiy va tashabbuskor kadrlarni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak o'qituvchilarning, ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish pedagogika nazariyasi va amaliyotining eng dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Chunki boshlang'ich ta'lim bosqichi bolaning tafakkuri, dunyoqarashi, o'quv faoliyatiga munosabati va shaxs sifatida shakllanishining dastlabki hamda eng muhim poydevorini yaratadi. Demak, ushbu bosqichda faoliyat yuritadigan pedagog nafaqat chuqur bilimga, balki kreativ yondashuvga, yangicha pedagogik tafakkurga va innovatsion faoliyat ko'nikmalariga ham ega bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z kasbiy faoliyatida bir vaqtning o'zida ta'lim beruvchi, tarbiyachi, yo'naltiruvchi, motivator va tashkilotchi sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda darsning mazmunini qiziqarli tashkil etish, ularning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish, murakkab tushunchalarni sodda va tushunarli shaklda yetkazish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va qiziqishni uyg'otish o'qituvchidan yuqori darajadagi kreativlikni talab qiladi. Kreativ o'qituvchi dars jarayonida faqat tayyor bilimlarni taqdim etmaydi, balki o'quvchilarni izlanishga, savol berishga, yangilik yaratishga, muammoni turli yo'llar bilan hal qilishga undaydi. Shu bois bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularda kreativ sifatlarini shakllantirish masalasi alohida e'tiborni talab etadi.

Shu bilan birga, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ sifatlarini rivojlantirish jarayonida qator muammolar mavjud. Jumladan, ayrim hollarda ta'lim jarayonida an'anaviy o'qitish usullarining ustuvorligi saqlanib qolmoqda, talabalar faolligini oshirishga xizmat qiluvchi interfaol va ijodiy topshiriqlardan yetarli darajada foydalanilmayapti, mustaqil ijodiy faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari cheklangan, baholash jarayonida esa ko'proq reproduktiv bilimlar nazorat qilinmoqda. Bundan tashqari, bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik ta'minot, amaliy mashg'ulotlar mazmuni hamda motivatsion mexanizmlar ham barcha holatlarda yetarli darajada samarali emas. Bu esa bo'lajak pedagoglarning zamonaviy ta'lim talablariga moslashishida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ sifatlarini oshirish masalasi pedagogika, psixologiya, metodika va innovatsion ta'lim yo'nalishlari kesishgan nuqtada joylashgan murakkab hamda ko'p qirrali ilmiy muammo hisoblanadi. Mazkur masalani ilmiy jihatdan yoritishda avvalo "kreativlik", "ijodkorlik", "ijodiy fikrlash", "pedagogik kreativlik", "kasbiy kompetentlik" kabi tayanch tushunchalarning mazmun-mohiyatini aniqlashtirish muhimdir. Shu bois mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilishda ularni shartli ravishda bir necha yo'nalishga ajratish maqsadga muvofiq: kreativlikning umumpsixologik va pedagogik asoslari, o'qituvchi shaxsida kreativ sifatlarini shakllantirish masalalari, boshlang'ich ta'limda ijodiy faoliyatni tashkil etish metodikasi hamda zamonaviy innovatsion yondashuvlarning pedagogik imkoniyatlari.

Psixologik tadqiqotlarda kreativlik ko'proq shaxsning individual xususiyati, intellektual faolligi va ichki motivatsiyasi bilan bog'liq holda o'rganilgan. Masalan, L. S. Vygotskiy ijodkorlikni insonning mavjud tajriba elementlarini qayta ishlash va yangi mazmun hosil qilish qobiliyati bilan izohlaydi. U bolaning tasavvuri va ijodiy faoliyati ijtimoiy muhit, ta'lim va tarbiya ta'sirida shakllanishini alohida ta'kidlaydi. Ushbu nuqtayi nazar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda muhim metodologik ahamiyatga ega, chunki kelajakdagi pedagog avvalo o'zida ijodiy tafakkurni rivojlantirmas ekan, o'quvchilarda ham kreativ fikrlashni shakllantira olmaydi.

A. Maslow va C. Rogers kabi gumanistik psixologiya vakillari esa kreativlikni insonning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish jarayoni bilan bog'laydi. Ularning qarashlarida kreativlik erkin fikrlash, o'ziga ishonch, mustaqillik va shaxsiy o'sishga intilish bilan chambarchas aloqador sifatida talqin qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshlang'ich ta'limga oid metodik adabiyotlarda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish, darslarda muammoli vaziyatlar yaratish, interfaol metodlardan foydalanish, mustaqil topshiriqlar va didaktik o'yinlar asosida ta'limni tashkil etish masalalari batafsil yoritilgan. Bu manbalarda o'qituvchining ijodiy yondashuvi boshlang'ich sinf o'quvchilarida qiziqish, faollik, tashabbuskorlik va mustaqil fikrlashni rivojlantirishning asosiy sharti sifatida ko'rsatiladi. Shu bilan birga, mazkur manbalarda ko'proq o'quvchi shaxsining kreativ rivojlaniishi ko'zda tutilgan bo'lib, bo'lajak o'qituvchining o'z kreativ salohiyatini shakllantirish jarayoni yetarli darajada alohida tadqiq etilmagan.

So'nggi yillarda innovatsion ta'lim texnologiyalari, loyihaviy faoliyat, STEAM yondashuvi, dizayn fikrlash, muammoli ta'lim va refleksiv yondashuvga oid adabiyotlar soni ortib bormoqda. Ushbu manbalarda kreativ-

likni rivojlantirishda an'anaviy reproduktiv o'qitish usullaridan voz kechib, talabani faol subyektga aylantiruvchi metodlarning samaradorligi asoslab beriladi. Loyiha asosida o'qitish talabani mustaqil izlanishi, muammoni tahlil qilishi, g'oya ilgari surishi, hamkorlikda ishlashi va tayyor mahsulot yaratishi uchun qulay didaktik sharoit yaratadi. Muammoli ta'lim esa tafakkur faolligini kuchaytirib, talabani tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki uni mustaqil ravishda kashf etuvchi shaxsga aylantiradi. Bu jihatlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirishda ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ sifatlarini oshirish masalasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Mazkur tahlilda kreativlikning pedagogik faoliyatdagi o'rni, uni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar, oliy ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan metodlarning samaradorligi hamda mavjud muammolar o'rganildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativ sifatlariga ega bo'lishi uning kelajakdagi kasbiy faoliyati samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Chunki boshlang'ich ta'lim bosqichida o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki bolalarda qiziqish uyg'otuvchi, ularni mustaqil fikrlashga undovchi, muammoli vaziyatlarda yo'l ko'rsatuvchi va ijodiy faoliyatni tashkil qiluvchi shaxs sifatida maydonga chiqadi.

Tahlillar natijasida aniqlandiki, bo'lajak o'qituvchilarda kreativ sifatlar asosan quyidagi ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi: yangicha fikrlashga moyillik, pedagogik vaziyatlarga nostandart yondasha olish, muammoning bir necha yechimini topishga intilish, mustaqil g'oya ilgari surish, tashabbuskorlik, moslashuvchanlik hamda ijodiy topshiriqlarni ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmasi. Biroq amaliy kuzatishlar va pedagogik tahlillar shuni ko'rsatadiki, barcha talabalar ham ushbu sifatlarini bir xil darajada namoyon eta olmaydi. Aksariyat hollarda talabalarda nazariy bilim yetarli bo'lsa-da, uni amaliy pedagogik vaziyatlarga kreativ tarzda tatbiq etish ko'nikmasi sust rivojlangan bo'ladi.

Tahlil davomida kreativ sifatlarini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan muammolar ham aniqlandi. Ulardan biri – oliy ta'limda ayrim hollarda an'anaviy ma'ruza va reproduktiv o'qitish usullarining ustuvor saqlanib qolayotganidir. Bunday sharoitda talaba ko'proq tayyor ma'lumotni qabul qiluvchi subyektga aylanadi, bu esa uning mustaqil fikrlashi va ijodiy izlanishiga yetarli imkon bermaydi. Ikkinchi muammo – amaliy mashg'ulotlarda kreativ topshiriqlarning yetarli emasligidir. Ba'zan topshiriqlar faqat bilimni takrorlash yoki qayta hikoya qilish bilan cheklanib qoladi. Natijada talaba yangi g'oya yaratish, pedagogik vaziyatni yangicha yechish yoki innovatsion yondashuv asosida faoliyat olib borishga odatlanmaydi.

Tadqiqot natijalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ sifatlarini oshirish masalasi bugungi pedagogik ta'lim tizimida alohida dolzarblik kasb etishini ko'rsatdi. Zero, zamonaviy ta'lim paradigmasi o'qituvchidan faqat fan asoslarini puxta bilishni emas, balki ta'lim jarayonini yangicha tashkil eta olish, noan'anaviy pedagogik vaziyatlarda samarali yechim topish, o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish kabi murakkab kasbiy vazifalarni bajarishni ham talab etmoqda. Shu ma'noda, kreativ sifatlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligida qo'shimcha emas, balki zaruriy komponent sifatida namoyon bo'ladi. Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, kreativlikni rivojlantirishga doir nazariy qarashlar pedagogika va psixologiya fanlarida yetarlicha shakllangan bo'lsa-da, ularni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash amaliyotiga tatbiq etishda ayrim nomuvofiqliklar mavjud. Xususan, oliy ta'lim jarayonida kreativlikni rivojlantirish haqida ko'p gapirilsa-da, amaliy mashg'ulotlar mazmunida bu yo'nalish doimo ham ustuvor o'rin egallamaydi. Bu esa nazariya bilan amaliyot o'rtasida uzilish mavjudligini ko'rsatadi. Talabalar ko'pincha kreativlikning mohiyatini tushunib yetsalar-da, uni real pedagogik faoliyatga qo'llash, ijodiy dars ishlanmalarini tuzish, innovatsion metodlarni maqsadga muvofiq tanlash va moslashtirishda qiyinchilikka duch keladilar.

Muhokama jarayonida aniqlanganki, kreativ sifatlarini rivojlantirishning samaradorligi, avvalo, ta'lim jarayonining qanday tashkil etilganiga bog'liq. Agar pedagogik tayyorgarlik jarayonida talabaga tayyor bilimni o'zlashtirish emas, balki izlanish, muammoni tahlil qilish, mustaqil xulosa chiqarish, yangi g'oya taklif etish va uni amaliyotda sinab ko'rish imkoniyati yaratilsa, kreativ rivojlanish uchun qulay sharoit yuzaga keladi. Aksincha, an'anaviy, bir yoqlama va reproduktiv yondashuv ustuvor bo'lgan ta'lim muhiti kreativlikning tabiiy namoyon bo'lishini cheklaydi. Demak, muammo faqat talabani individual qobiliyatida emas, balki pedagogik muhit, metodik yondashuv va ta'lim strategiyasida ham mujassamdir.

Muhokama natijalaridan yana bir muhim jihat ayon bo'ldiki, kreativ sifatlarini rivojlantirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Ya'ni bu faqat bitta fan yoki bitta mashg'ulot doirasida emas, balki butun pedagogik tayyorgarlik tizimi bo'ylab uzviy va izchil olib borilishi kerak. Kreativlikni shakllantirish barcha fanlarda, ayniqsa metodika, pedagogika, psixologiya va amaliyot bilan bog'liq mashg'ulotlarda integrativ tarzda tashkil etilgandagina samarali bo'ladi. Talabaga dars ishlanmasi tuzish, didaktik material yaratish, o'quvchi faoliyatini modelashtirish, darsdan tashqari tadbir ssenariysi ishlab chiqish, o'yin va mashqlarni konstruksiya qilish kabi amaliy vazifalar muntazam berib borilsa, ularning kreativ salohiyati bosqichma-bosqich mustahkamlanadi.



XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ sifatlarini oshirish masalasi zamonaviy pedagogik ta'limning eng muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biri ekanligini tasdiqladi. Chunki bugungi ta'lim tizimi jamiyatning tezkor o'zgaruvchan ehtiyojlariga moslasha oladigan, pedagogik jarayonni yangicha yondashuvlar asosida tashkil etadigan, mustaqil fikrlovchi, tashabbuskor va ijodkor o'qituvchilarni talab etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida faoliyat yuritadigan pedagog uchun kreativ sifatlar alohida ahamiyatga ega. Zero, aynan shu davrda o'quvchining bilishga qiziqishi, mustaqil fikrlash qobiliyati, yangilikka intilishi va ijodiy faoliyatga munosabati shakllanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishda interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat, amaliy mashg'ulotlar, refleksiv yondashuv, dizayn-fikrlash elementlari hamda raqamli texnologiyalar samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, talabning mustaqil izlanishi, yangi g'oya ilgari surishi, didaktik materiallar yaratishi, dars ishlanmalarini noan'anaviy shaklda ishlab chiqishi, amaliy pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishi va jamoaviy muammolarni hal etishi orqali uning kreativ salohiyati faol rivojlanadi. Bu esa kreativlikning faqat nazariy tushuncha emas, balki amaliy faoliyat jarayonida shakllanadigan va takomillashadigan sifat ekanini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ushbu jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi bir qator muammolar ham aniqlandi. Jumladan, ayrim hollarda ta'lim jarayonida an'anaviy va reproduktiv usullarning ustuvorligi saqlanib qolayotgani, kreativ topshiriqlar va amaliy vazifalarning yetarli emasligi, talabalarning ichki motivatsiyasini kuchaytirishga yetarli e'tibor berilmayotgani, baholash tizimida esa asosan tayyor bilimlarni qayta ifodalashga urg'u berilayotgani kreativ sifatlarining to'laqonli shakllanishiga to'sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, metodik ta'minotning yetarli darajada boy emasligi, innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishdagi qiyinchiliklar ham muammoning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ldi. Tadqiqot natijalari asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ sifatlarini oshirish uchun oliy ta'lim muassasalarida maxsus pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi. Ta'lim to'g'risidagi Qonun, O'RQ-637-son. 2020-yil 23-sentabr. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmon, PF-5847-son. 2019-yil 8-oktabr. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>
3. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
4. Ishmuhamedov R., Yo'ldoshev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2013.
5. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Moliya, 2003.
6. Vygotskiy L. S. Voobrajenie i tvorchestvo v detskom vozraste. – Sankt-Peterburg: Soyuz, 1997.
7. Guilford J. P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967.
8. Torrance E. P. Torrance Tests of Creative Thinking: Norms-Technical Manual. – Lexington, MA: Ginn and Company, 1974.
9. Rogers C. Freedom to Learn for the 80's. – Columbus, Ohio: Charles E. Merrill Publishing Company, 1983.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.